

**ABBREVIATURA ZAMONAVIY ITALYAN TILI SO'Z
BOYLIGINI TO'LDIRISH USULI SIFATIDA**

Xodjiyeva Gulchehra Norovna

SAMDCHTI Ispan italyan kafedrasi o'qituvchisi

Raxmatova E'zoza

SAMDCHTI Italyan tili yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada abbreviaturalarning zamonaviy italyan tilidagi o'rni va ahamiyati yoritilgan. Abbreviaturalar leksikani boyitishning samarali usuli sifatida yangi so'zlarni kirgizish, tushunchalarni ixcham shaklda ifodalash va muloqotni tezlashtirishda muhim rol o'ynaydi. Maqolada abbreviaturalarning turlari, ularning ijtimoiy tarmoqlar, texnologiya, tibbiyot va ilmiy sohalardagi ishlatilishi haqida batafsil ma'lumot berilgan

Kalit so'zlar: Abbreviatura, sigla, acronimo, zamonaviy italyan tili, lotin qisqartmalari, qisqartmalar, muloqot, til rivoji.

Abbreviaturalar tilni rivojlantirish jarayonida nafaqat tezlik va ixchamlik, balki muloqot samaradorligini oshirish vositasi sifatida ham muhim ahamiyatga ega. Hozirgi zamonaviy hayotimizda abbreviaturalarga ehtiyoj katta bo'lib, maishiy hayotda ko'p foydalaniladi. Abbreviaturalar qadimdan mavjud bo'lib, Rim imperiyasi davrida ham ishlatilgan. Zamonaviy davrda esa ularning qo'llanishi XX asrda texnologiya, sanoat va ijtimoiy jarayonlar bilan kengaygan.

Abbreviatura (italiancha: abbreviature – qisqartma; lotincha abbrevio – qisqartiraman)[1]. Abbreviatsiya - so'zlarning qisqartirilgan shaklini yaratish jarayoni bo'lib, bu tilni sodda va ixcham qilishga yordam beradi[2].

Qisqartirish – bu so'z yoki iborani bosh harflari yoki bo'g'inlari bilan qisqartirib yozish usuli[3]. Qisqartirishlar matnni yozish va o'qishni soddalashtirish va tezlashtirish uchun, ayniqsa texnik va ilmiy sohalarda hamda rasmiy hujjatlarda qo'llaniladi. Qisqartmalar tilning samarali va tezkor muloqot vositasiga aylangan. Va bu usul eng ko'p ijtimoiy tarmoqlarda qo'llaniladi.

Masalan, SMS (Short Massage Service) yoki FAQ (Frequently Asked Questions) qisqartmalari[4].

Yana aytib o'tishimiz mumkinki, qisqartmalar joy nomlarini ham sodda qilib aytishda yoki yozishda ishlatilgan va ular geografik abbreviaturalar deb nomlanadi, masalan, *NA* (Napoli), *RM* (Roma), *MI* (Milan), pochta xizmatlarida va hukumat hujjatlarida ishlatiladi[5].

Italyan tilidagi qisqartmalar qadim zamonlardan beri ishlatilgan, italyan tili lotin tillar oilasiga mansub bo'lib, biz hattoki qisqartmalarni qadimgi lotin tilida ham

ko'rishimiz mumkin va bu qisqartirishlar yillar davomida tilda, muloqotda ishlatilish o'rnini saqlanib qola oldi va so'ngi o'n yilliklarda ularning ommaviyligi sezilarli darajada oshdi.

Abbreviaturaning tarixi va paydo bo'lishi

Abbreviaturalar qadim zamonlardan boshlangan. Ular yozma muloqotni tezlashtirish va ixchamlashtirish uchun ishlatilgan. Misol uchun, qadimgi Rimda va Yunonistonda muhim hujjatlar va diniy matnlarda qisqartmalar keng qo'llanilgan. Birinchi abbreviaturalar lotin tilidan kelib chiqqan bo'lib, ular asosan rasmiy hujjatlar va diniy matnlarda ishlatilgan. Abbreviaturalar juda ko'p hollarda doimiy ravishda takrorlanadigan so'zlar yoki ifodalarning qisqartirilgan shakllari sifatida paydo bo'lgan[6].

Qisqartmalarning rivojlanishi

Abbreviaturalar 19-20-asrlarda sanoat inqilobi va ilmiy texnikaviy taraqqiyot bilan birga kengaygan. Ilmiy va texnik sohalarda yangi atamalar va so'zlarning qisqartirilgan shakllari yaratildi. Bu qisqartmalar ilmiy ishlar va kundalik muloqotda tez-tez ishlatila boshladi. *Masalan, "km" (kilometr) yoki "h2o" (suvi)* [7].

Abbreviaturalar va ularning zamonaviy ishlatilishi

Zamonaviy davrda, ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarda abbreviaturalar faol qo'llaniladi. Bu, o'z navbatida, tezkor va samarali muloqotga olib keladi. Ayniqsa, internet madaniyati va mobil texnologiyalar abbreviaturalarni keng tarqalishiga sabab bo'ldi. Bugungi kunda qisqartmalar matnli xabarlar, elektron pochta, xizmat yozishmalari va boshqa ko'rinishdagi biznes aloqalarida keng qo'llaniladi. [8]

Qisqartirishlarning zamonaviy dunyodagi ahamiyati quyidagilardan iborat:

1. Muloqotda vaqt va kuchni tejash.
2. Matnni o'qish va tushunishni soddalashtirish.
3. Professional va ishbilarmon muloqotda qulaylik yaratish.

Hozirgi kunda italiyan tilida keng qo'llaniladigan qisqartmalarga quyidagilarni misol keltirilishimiz mumkin :

es. – esempio (masalan)

masch. – maschile (erkak jins)

Km. – Chilometro (kilometr)

Stn. – Stazione (vokzal)

TV. – Televisione (Televideniya)

Aut. – Autostrada (avtomagistral)

FIAT. - Fabbrica Italiana Automobili Torino (Italiyada avtomobil sanoatining ramzi)

Rai. - Radiotelevisione Italiana (Italiyadagi eng yirik davlat telekompaniyasi)

Qisqartmalar faqat rasmiy muloqotda emas, balki ijtimoiy tarmoqlar va kundalik tilshunoslikda ham qo'llaniladi.

Grammatikada abbreviazione yoki abbreviatura soʻz yoki kengroq birlikning yozilish yoki baʼzan talaffuz qilishning qisqartirilgan shaklini anglatadi.

• Qisqartmalar quyidagi usullar orqali amalga oshishi mumkin:

1. **Qisqartirish yoʻli bilan (compendo)** : Soʻzning qisqartma shakli bitta yoki bir nechta harfdan tashkil topadi, odatda soʻngidan nuqta quyiladi (masalan : /. – Italiya uchun, *dott.* – doktor uchun, *pag.* – sahifa uchun).

2. **Biriktirish orqali (contrazione)** : Boshlangʻich harflar va soʻzning oxirgi qismlari birlashtiriladi (masalan: *Sig.ra, ill.mo* kabi).

3. **Undosh harf ketma – ketligi bilan** : faqat boshlangʻich undoshlar va bir yoki bir nechta keyingi harflar ishlatiladi, unli harflar chiqarib tashlanadi (masalan : *mss* – qoʻyozma uchun, *ps* – postscript uchun).

Epigrafiyada qisqartma tosh yozuvlarda joy va vaqtni tejash uchun ishlatiladi. Baʼzan bu lapis ustasining ixtiyoriga bogʻliq boʻlgan. Paleografiyada faqat boshlangʻich harfni qoldirib, soʻzni qisqartirish sigla deb ataladi, faqat oxirgi harflar olib tashlansa, bu *truncamento* deb nomlanadi.

Bugungi kunda, *truncamento* va sigladan tashqari, qisqartmalar koʻpincha iboralarning yoki sintaktik birliklarning qisqartirilgan shakllari sifatida uchraydi, masalan, soʻz yoki iboraning bir qismiga qisqartiriladi. Ushbu shakllar tez-tez foydalanish natijasida paydo boʻladi va ular kontekstda, lingvistik yoki boshqa yoʻllar orqali toʻldiriladi.

Masalan: In C2 (serie C2 futbol chempionati) due vittorie in trasferta — La prof. mi ha detto che sarò promosso.

(Maʼnosi: C2 ligasida ikki gʻalaba — Oʻqituvchim meni oʻtishimni aytdi.)

Shuningdek qarang: ACCORCIATIVO va SIGLA[9].

Abbreviaturalarning turlari va ishlatilishi

Italiyan tilidagi abbreviaturalarni ikki asosiy guruhga boʻlish mumkin:

1. **Single** – bu harflar qisqartmasidan tashkil topgan abbreviaturalar.

Masalan: ONU (Organizzazione delle Nazioni Unite) – Birlashgan Millatlar Tashkiloti.

UE (Unione Europea) – Yevropa Ittifoqi.

Sigla: bir qator nomlar, tashkilotlar, firmalar yoki ilmiy atamalarning bosh harflarining ketma – ketligi (*masalan, SLI = Società Linguistica Italiana*).

Bu bir soʻzning yoki biror nomni tashkil etuvchi soʻzlarning bosh harflarining toʻplami boʻlib, qulaylik uchun qisqartma sifatida ishlatiladi, ayniqsa, assotsiatsiya, kompaniya yoki tashkilotga nisbatan. [10]

2. **Acronimi** – talaffuz qilinadigan yangi soʻz sifatida qisqartmalar.

Akronim (qadimgi yunoncha ἄκρον, *àkron*, "uchi" va ὄνομα, *ònoma*, "ism" soʻzlaridan) yoki bosh harflar bilan yozilgan soʻz, bitta soʻz sifatida oʻqiladigan bosh harflar yoki boʻgʻinlardan (baʼzan oxirgi harflaridan ham) tashkil topgan nomdir, yoki

umumiyroq qilib aytganda, har bir so'zning yoki bir jumla yoki nomning muayyan so'zlarining bir yoki bir nechta harflarining ketma-ketligidan;

masalan: FIAT (Fabbrica Italiana Automobili Torino) – Italiyada avtomobil sanoatining ramzi.

Akronim odatda katta harflar bilan yozilgan va nuqta bilan ajratilmagan bir nechta harfdan iborat bo'lib, kompaniya, tashkilot, diagnostika tekshiruvi va hokazolarning murakkab nomining bosh harflaridan iborat. Qisqartmalar singari, akronimlar ham joy tejash uchun ishlatiladi, lekin yozma nutqda ham, og'zaki nutqda ham ishlatiladi. Ular ijtimoiy tarmoqlar, tibbiyot, texnologiya va kundalik hayotda keng qo'llaniladi [11].

Abbreviaturalarning leksik ta'siri

Abbreviaturalar italiyan tilining so'z boyligini sezilarli darajada oshiradi. Ular murakkab iboralarni soddalashtirish bilan birga yangi tushunchalar uchun o'rin yaratadi. Masalan, Rai (Radiotelevisione Italiana) va EURO (Evropa Ittifoqining pul birligi) kabi qisqartmalar butun dunyo bo'ylab tanilgan.

Shuningdek, abbreviaturalar tilning xalqaro maydonda rivojlanishiga yordam beradi. Jahon miqyosidagi qisqartmalarni qabul qilish, italiyan tilini boshqa tillar bilan uyg'unlashtiradi.

Xulosa

Abbreviaturalar zamonaviy italiyan tilining ajralmas qismiga aylangan. Ular yangi tushunchalarni kirgizish, muloqotni soddalashtirish va tilni zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashtirishda muhim rol o'ynaydi. Bu jarayon nafaqat italyan tilining leksikasi, balki global maydondagi o'rnini ham mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati :

1. M. Yusupov. “Hozirgi zamon tilshunosligi” Tashkent: Fan, 2023, B. 45.
2. T. Sharifov. “Zamonaviy til va muloqot” Tashkent: Universitet Nashriyoti, 2021, B. 38.
3. A. Karimov. “Italiya tili va geografik qisqartmalar” Tashkent: Ma'naviyat, 2018, B. 22.
4. I. Borisov. “Abbreviaturaning tarixi va tilda roli” Moscow: Nauka, 2020, B. 72.
5. M. Yusupov. “Zamonaviy til va qisqartmalar” Tashkent: O'zbekiston, 2019, B. 101.
6. Vincenzo Ceppellini. “Nuovo Dizionario Pratico Di Grammatica E Linguistica” 1996, B. 4-5.

Axborot resurslari :

7. <https://izoh.uz/>
8. <https://qomus.info/>
9. <https://milliycha.uz>
10. <https://accademiadellacrusca.it/it/consulenza/sigle/141>
11. <https://www.growell.it/abbreviazioni-e-acronimi-qualche-suggerimento-utile/>